



## Current trends in the research of political PR in the political culture of society

Davron MUITOV<sup>1</sup>

Uzbek State University of World Languages

### ARTICLE INFO

**Article history:**

Received August 2024  
Received in revised form  
15 September 2024  
Accepted 15 October 2024  
Available online  
25 November 2024

**Keywords:**

political culture,  
political PR,  
political activity,  
Political technologies,  
development,  
propaganda and propaganda  
culture,  
strategy,  
power.

### ABSTRACT

The article examines some modern trends of political PR in the transformation of political culture. It discusses external information and ideological factors influencing the institution of political PR after the Central Asian countries gained independence. In particular, the article focuses on the specifics of public relations, as well as political advertising and image creation, protection of political interests of different classes in statements and speeches of a candidate for the new leadership. At the same time, a conclusion is made about the relevance of creating a unique political and cultural environment in the application of political technologies.

2181-1415/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss5-pp286-292>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

## Jamiyatning siyosiy madaniyatida siyosiy piarni tadqiq etishning dolzarb tendensiyalari

### ANNOTATSIYA

**Kalit so'zlar:**

siyosiy madaniyat,  
siyosiy piar,  
siyosiy faoliyat,  
siyosiy texnologiyalar,  
tarrariyot, targ'ibot va  
tashviqot madaniyati,  
strategiya,  
hokimiyat.

Maqolada siyosiy madaniyat transformasiyalashuvida siyosiy piarning ayrim dolzarb tendensiyalari tadqiq etilgan. Unda MO mintaqasi davlatlarining mustaqillikni qo'lga kiritishi bilan siyosiy piar institutiga ta'sir qiluvchi tashqi axboriy mafkuraviy omillar xaqida so'z yuritilgan. Jumladan maqolada jamoatchilik bilan aloqalar xususiyatlari, shuningdek siyosiy reklama va imij yaratish, yangi yetakchilikka nomzodning bayonot va chiqishlarda turli sinflarning siyosiy manfaatlarini himoya qilish masalalariga e'tibor qaratiladi. Ayni paytda bugun siyosiy texnologiyalarni qo'llashda o'ziga xos siyosiy madaniyat muhitini yaratishning dolzarbligi xaqida xulosa beriladi.

<sup>1</sup> Associate Professor, Uzbek State University of World Languages. E-mail: [davronmuitov@gmail.com](mailto:davronmuitov@gmail.com)

## Актуальные тенденции исследования политического пиара в политической культуре общества

### АННОТАЦИЯ

**Ключевые слова:**

политическая культура,  
политический пиар,  
политическая  
деятельность,  
политические технологии,  
развитие,  
пропагандистская и  
пропагандистская  
культура,  
стратегия,  
власть.

В статье рассматриваются некоторые современные тенденции политического пиара в трансформации политической культуры. Говорится о внешних информационных и идеологических факторах, влияющих на институт политического пиара после обретения независимости странами Центральноазиатского региона. В частности, в статье уделяется внимание особенностям связей с общественностью, а также политической рекламы и создания имиджа, защиты политических интересов разных классов в заявлениях и выступлениях кандидата в новое руководство. При этом делается вывод об актуальности создания уникальной политико-культурной среды в применении политических технологий.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi ijro etuvchi hokimiyatni tom manoda xalqqa xizmat qiluvchi organga aylantirishni nazarda tutadi [1]. Bugun jamiyat hayotida siyosiy piar ijtimoiy institut tariqasida o'z taraqqiyoti va shakllanishi davriga ega. Ayni shu jarayonlarda u jamiyatning barcha soxalariga daxldor bo'lib, uning qonunlari doirasida namoyon bo'lmoqda. Siyosiy piar ijtimoiy institutining shakllanishi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, siyosiy hayoti bilan bevosita bog'liq. Ta'kidlash joizki, ayni MO mintaqasi davlatlarining mustaqillikni qo'lga kiritishi bilan siyosiy piar instituti mutloqo yangi ko'rinishlarda yuzaga chiqdi. Tabiiyki bu holat mintaqa ijtimoiy fikrning sotsium hayotida muhim rol o'ynaydigan yangidan yangi ma'lumotlar olish usullariga ehtiyojni kuchaytirdi.

Aslida jamiyatning siyosiy sohasi uning asosiy resursi bo'lmish hokimiyat orqali shakllanishidan xabardormiz. Biz ko'pincha hokimiyat so'zini ishlatishimizga qaramasdan, uning mazmuniga ko'p e'tibor bermaymiz. Biz hokimiyat to'g'risida gapirar ekanmiz dastavval siyosat to'g'risida o'ylaymiz. Ammo shunga qaramasdan so'nggi yillarda MO davlatlaridagi hokimiyat ko'p transformasion o'zgarishlarga duch keldi. Shu tufayli hokimiyat siyosiy piar texnologiyalari orqali bizga kundalik hayotda har daqiqada ta'sir o'tkazib turishini tan olishimiz darkor [2].

Hokimiyat tushunchasi hamisha siyosiy sohani anglatadigan markaziy kategoriyalaridan biri bo'lib kelgan. Chunki ayni hokimiyat siyosat markazida bo'lib turadi, u siyosiy muammolarni u yoki bu tomonga hal qilishning o'ziga xos kaliti rolini bajaradi. Hokimiyat odamlar murakkab vaziyatga tushib qolgan paytida yuzaga kelgan tartibsizliklarni bartaraf etishning mahsus organlari tashkil topgan paytdan boshlanadi [3].

Demak hokimiyat siyosatning o'zagini tashkil etib, bunda hokimiyat muammosi siyosatning asosiy muammosiga aylanib qoladi. Siyosiy hokimiyat nazariyasi esa siyosiy qarashlar, tasavvurlar, mushohadalarning asosiy mazmunini tashkil etish jarayonida dunyoga kelgan. Aksariyat nazariyalarda hokimiyatga intilish insonning psixikasi va ongining asosiy xususiyati bilan bog'liq belgilab beriladi. Ularda hokimiyatga intilish inson siyosiy faolligini belgilovchi omil sifatida qayd qilinadi. Zero, zamonaviy globallashuv davrida hokimiyatga intilayotgan inson uchun hokimiyat-o'z siyosiy ahvolini, maqomini

yaxshilash manbaiga aylandi. Shuning uchun ham butun dunyodagi siyosatchilar bilan bir qatorda mintaqamizdagi aynan jamoatchilik bilan aloqalar mavzusi doimo e'tibor va nazoratda bo'ladi.

*Birinchi*dan, bugun aynan MO mintaqasi axborot makonlaridagi siyosiy piar darajasi siyosiy sohaning kelajagini belgilab bermoqda. Demak, bugun qisqacha qilib aytganda jamoatchilik bilan aloqalar siyosiy hayotning ajralmas qismiga aylanib bo'ldi, yuqori martabali mansabdorlari vaqti -vaqti bilan axborot agentliklari va PR menejerlari bilan birgalikda o'zlarining so'nggi loyihalari va tashabbuslari to'g'risida barcha kerakli ma'lumotlarni etkazish uchun press-relizlar ishlab chiqarmoqda, turfa xil konferensiya va brifinglar tashkil qilishmoqdalar.

*Ikkinchi*dan, ayni siyosiy sohadagi jamoatchilik bilan aloqalar bu avvalo siyosatchilar tomonidan jamoatchilik bilan o'zaro manfaatli munosabatlarni o'rnatish uchun foydalanadigan asosiy strategik aloqa shaklidir. Oddiy fuqorolar esa siyosatdagi jamoatchilik bilan aloqalar masalasiga bu faqat yangiliklarni boshqarish hamda OAV bilan aloqalarni o'z ichiga olishdir, deb xulosa qilishni maqul bilishadi. Albatta bu masalaga ancha primitiv yondoshuvdir.

*Uchinchi*dan, jamiyatning siyosiy sohasi esa to'g'ridan-to'g'ri elita deb atalmish jamiyatning oliy tabaqasiga ham tegishli ekanligiga etibor qaratish kerak. Aslida jamiyatning ayni shu qismida hokimiyat uchun kurash ketadi. Shu tariqa jamiyatni boshqarish tamoyillari va mexanizmlari bo'yicha jiddiy ehtirolarga boy baxs-munozaralar shakllanadi, toblanadi. Xususan bu holatda siyosat oddiy fuqarolarning ham ijtimoiy-siyosiy tafakkurga o'z ta'sirini o'tkaza boshlaydi. Biz esa turli xil saylov kompaniyalari va referendumlarda doimiy ishtirok orqali bu jarayonni his qila boshlaymiz.

Shu bilan siyosat olamidagi keskin raqobat ayni siyosiy elitaning o'z imiji ustida ishlashiga majbur qilayotir. Jamoatchilikning siyosiy elitani qanday qabul qilish darajasi kelajakdagi siyosiy saylovlar natijalariga ta'sir qilish mumkin [4]. Shuning uchun ular doimiy tarzda o'zlarining eng yaxshi tomonlarini namoyish etishlariga va albatta shu alpozda jamoatchilik e'tiborini tortishlariga urinishadi.

Shubhasiz bugungi kunga kelib jamoatchilik bilan aloqalar siyosiy faoliyatning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Zotan, bugun aynan to'g'ri tashkil qilingan siyosiy piar ulkan hayotiy ta'sirga ega bo'layotir. (Putin, Erdog'an, Makron, hattoki Zelenskiy bilan bog'liq siyosiy saylovlardagi piar texnologiyalari bularning yorqin misolidir) Siyosatchilar haqida ijobiy imijni ayni siyosiy piarning zamonaviy texnologiyalari yaratib bermoqda. Turli siyosiy institutlar, guruhlar va ularning liderlari o'rtasidagi munosabatlarda siyosiy piar hokimiyatni qo'lga kiritish uchun o'ziga xos rol o'ynaydi. Ya'ni siyosiy piar qo'shma siyosiy kompaniyalarda hokimiyatiga ta'sir qila oluvchi davlat va jamoat tashkilotlari, shuningdek fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy tajribasini baholash mexanizmlarining mohiyatida namoyon bo'lib boradi.

MO mintaqasida Siyosiy PR qanday shakllandi va u qanday ko'rinishlarda o'zini namoyon qilmoqda? Ya'ni globallashtirish davrida siyosatning maqsadlaridan biri birinchi navbatda siyosiy ommani shakllantirish bo'lib qolmoqda. Ammo zamonaviy siyosiy munosabatlar dinamikasi siyosiy reklama va imid yaratishning ilg'or texnologiyalarisiz bunga erishish mushkul ekanligini tasdiqlayotir.

Bunday paytda birinchi, Siyosiy PR – bu biror bir siyosiy mavzu doirasida jamoatchilik fikrini shakllantirishdan boshlanadi [5]. Siyosiy jarayonlar tahlili shuni tasdiqlaydiki, har qanday siyosiy institut yohud siyosiy lider ommaviy siyosiy aloqa va

axborot bilan oqimlarini boshqarish uchun PR texnologiyalarni o'ziga moslab ishlab chiqadi. Zotan, bugungi axborotlashgan jamiyat sharotida odamlarga axborot ta'sirisiz va bunday ta'sirni samarali boshqarmay turib, har qanday samarali siyosat olib borish mushkulotga aylanadi [6]. Bu erda siyosiy reklama va imij yaratish masalasi ham ayni shu ma'noda o'z mantig'iga ega bo'lishi kerak.

Ikkinchidan siyosiy raqobatdagi keskinlik ham siyosatchilarning o'z imiji ustida ishlashga majbur qilishi kerak. Ular ayni siyosiy saylovlar davrida jamoatchilik tomonidan qanday qabul qilingani ayonlashadi. Shuning uchun siyosatchilar uchun to'xtovsiz tarzda o'zlarining eng yaxshi imijbop tomonlarini ko'rsatishga va keng omma va elektoratining e'tiborida qolmoqlik uchun barcha axboriy mafkuraviy elementlarini siyosiy resurs darajasiga olib chiqishlari muhim ahamiyatga ega.

Albatta bunday holatda siyosiy reklama unsurlaridan unumli foydalanish yaxshi natija beradi. Zero, siyosiy reklama fuqorolarni tezkorlik va shiddat bilan biron bir siyosiy harakatni amalga oshirishga undaydi: bular ma'lum bir yangi siyosiy nomzod uchun saylovlarda ovoz berish, turli mitinglarda qatnashish va boshqa shunga o'xshash masalalarga kelib taqaladi [7].

O'z navbatida siyosiy reklama kommunikasiyalarning shunday o'ziga xos shaklini aks ettiradiki unda dastavval reklama buyurtmachisi siyosiy maqsadlariga mos keluvchi odamlarning ongi va harakati chaqirig'idan kelib chiqish kerak bo'ladi. MO mintaqasi reklama buyurtmachilariga bunday paytda siyosiy partiyalar, ijtimoiy harakatlar, siyosiy liderlar va boshqalarni kiritish mumkin. Siyosiy reklama axboriy mahsulotni tayyorlash siyosiy kompaniyasini nazorat qilish demakdir.

Odatda siyosiy PR siyosiy sub'ekt va jamoatchilik o'rtasida uzoq muddatli to'laqonli va ishonchli munosabatlarini o'rnatadi. U siyosiy sohada amalga oshiriladigan, siyosiy hokimiyat uchun kurashda siyosiy yetakchilikni yo'lga qo'yishga qaratilgan PR shaklidir.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, bugungi kunning siyosiy etakchisi o'z imijisiz etakchilikni uzoq ishlab qololmaydi. Ma'lumki Rossiya Federatsiyasining amaldagi prezidenti V. Putin oliy hokimiyatni qo'lga kiritgan dastlabki yillarida Rossiya ancha besaranjom, ammo demokratik yo'lni tanlagan davlatlar qatorida edi. Ayniqsa, o'tgan asrning so'nggi yillariga kelib ushbu davlat ichki separatizm, diniy fundamentalizm, banditizm, reket kabi destruktiv kuchlar tomonidan tahdid solinayotgan bir davlatga aylanib qolgan edi. Shunday holatda mamlakatni, yagona konsolidatsiya qilishga qodir siyosiy etakchiga va uni aynan rossiyaliklar ijobiy qabul qilishliklariga ehtiyoj katta edi. Mazkur davr rus tele efirlarida V.Putinning asli xarbiylardan chiqqanligi, uni sportchi, uchuvchi qiyofasida qayta qayta nomoyon qilishini esga olsak. Bunday piar shakli shubhasiz V. Putin jamoasi uchun samarali natijani bera boshlagan.

Aslida siyosiy imij ishlab chiqaruvchilar keng jamoatchilik, axborot makoni uchun siyosiy aktyor (siyosat sub'ekti) obrazini yaratishini ta'kidlashimiz kerak. Demak, bu holatda muayyan g'oyalar, maqsadlar, vazifalarga ega bo'lgan faol siyosiy ishtirokchi (tashkilot, shaxs, guruh) uchun harakatlar boshlanadi. Siyosiy ta'sir ob'ekti esa elektorat – siyosiy aktyorlarning maqsadli auditoriyasiga aylana boshlaydi [8].

Siyosiy PR boshqa PR turlaridan farqlanib, siyosiy harakatni, dastavval, siyosiy sub'ektlarni manipulyatsiya qilishdan boshlaydi. Odatda yangi etakchilikka nomzodning bayonot va chiqishlarda turli sinflarning siyosiy manfaatlarini himoya qilish masalalariga alohida urg'u beriladi.



Masalan, bu borada marhum V.Jirinovskiy partiyasining saylov oldi kompaniyalari ilk davrini eslaylik. O'tgan asr to'qsoninchi yillarini boshida hali rossiyaliklar jamiyati uchun taniqli bo'lmagan V.Jirinovskiy ismli shaxs siyosat maydoniga chiqa boshlaydi. U noodatij tarzda chiqishlar sonini ko'paytirib, agar "hokimiyat tepasiga kelib prezident bo'lib ketsam uch kun ichida Rossiyaning buyuk imperiyasini tiklab beraman, uch kun ichida rus ayollari uchun dublyonka, erkaklari uchun aroq ichimligining narxini arzonlashtirib tashlayman." qabilidagi chiqishlari bilan tanilgan. U zamonaviy siyosiy piar tarixida shunday yo'l bilan o'z maqsadli auditoriyasiga ega bo'lgan dastlabki rus populist siyosatchilar sirasiga kiritilgan. Hatto o'z partiyasiga qarshi chiquvchi antinamoyishchilarni ham o'zi tayyorlab bergan ekan. Natijada, avvallari notanish bo'lgan V.Jirinovskiy tez orada mashhur bo'lib ketadi. Bu siyosiy holatni qanday izohlash mumkin? Ta'kidlash joizki, aslida bu rus siyosiy jamiyatida siyosiy piarning ilk manipulyativ ko'rinishlaridan edi. Siyosiy manipulyatsiya qilish davri bugun ham mavjud [9].

Masalan, hozirgi siyosiy piar davri ba'zan o'tkir millatchilik, yohud shovinistik qarashlar bilan siyosatda o'z manipulyativ harakatlarini davom ettirayotganlarga ham duch kelmoqda. Ularning soni barmoq bilan sanarli bo'lsada, jiddiy munozarali chiqishlarga sabab bo'lmoqda.

Ammo, it huraveradi karvon o'taveradi deydi dono xalqimiz. Yaqinda Rossiya telekanallarining birida Prilepin, Smolin kabi shovinistlar navbat – navbati bilan chiqishlar qildi. Bu aslida shovinistik alahsirashning qo'pol bir ko'rinishi sifatida baholanishi joiz. Bunday axboriy xurujlarni o'z vaqtida anglash ma'suliyati haqida qayg'urishimiz kerak.

Yangi shovinizm mafkurasi bosh ko'tarib qoldimi? Nima uchun? Aslida, Zaxar Prilepin kim o'zi? – degan savollardan boshlaylik. U harbiylardan chiqqan bir yozuvchi, dramaturg, natsional bolsheviklar vakili ekan. 2007-yildan beri Rossiya davlati rahbariyatiga qarshi siyosiy harakatlarning faol ishtirokchisi. Umr bo'yi siyosiy piarning quli bo'lib kelgan ekan. Uning asar va chiqishlarida misli ko'rilmagan dahshatlarga olib keluvchi isyonkorlik hamda inqilob ruhi kuchlidir. Albatta o'z navbatida bunday alahsirashlari ilg'or rus ziyolilar qatoridagi zamondoshlarimizga ham xush kelmaganini ta'kidlashimiz kerak. Ular tomonidan Zaxar Prilepin 2012-yilda nashr etgan "Stalinga xat" asari ksenofobiya, antisemitizm va neostalinizm, fashizmni tarannum etuvchi manipulyativ asar tariqasida qoralangan.

Jumladan, Rossiya Federatsiyasining sobiq madaniyat vaziri Mixail Shvidkoy "Stalinga xat"ni mutolaa qilib bo'larkan uni "rus yozuvchisiga yot bo'lgan ahmoqlik va xiyonatkorlikning asl namunasi" deb baholaydi. Hatto, marhum Eduard Limonov (natsional bolshevik sifatida safdoshi edi) "Yangi davr shunday kimsalarga muhtoj bo'larkan. Nachora, shundaylarni yaratib ham ola oldi." – deb o'tib ketdi. Taniqli rus vatanparvarlaridan bo'lmish Igor Strelkov esa "Zaxarning urush harakatlariga xech qanday aloqasi yo'q. U o'zini telekameralar oldida 15 minutga qolmay ko'z-ko'z qiluvchi, aslida Donesk restoranlari tomon kayf safo uchun yurishlarda davom ettiruvchi bir julik" deb ta'riflaydi. E'tibor bering hatto uning safdoshlari ham uni qabul qilishmagan. Bular uzoq Oktyabr to'ntarishi davridagi bolsheviklar to'dasini eslatsa kerak. Masalan, diktator Mussolini ham shunday shum qiliqlari bilan tarixda eslanadi [10].

Ammo bunday shakldagi axboriy psixologik bosim barchamizni bezovtalantirishi kerak. O'z navbatida vaziyatni yumshatish uchun Rossiya Federatsiyasining tashqi ishlar vazirligi mutasaddilaridan biri Mariya Zaxarova "Z. Prilepinning O'zbekistonni qo'shib olinishi haqidagi fikrlari Rossiya pozitsiyasini olisdan ham aks ettirmaydi" deb bayonot

berishigacha borib etganini ta'kidlamoqchi edik. Afsuski, salgina vaqt o'tmay yana bir bor shovinistik alahsirashga duch keldik. Navbatdagisi endi janob Smolindan bo'ldi. Bu chiqishni kuzatdik. O'taketgan surbetlik namunasi desak adashmaymiz. Siyosiy madaniyat elementlarini sezmaymiz. To'g'ridan to'g'ri tarixiy faktlarni zo'rma-zo'raki inkor etishga kuch beribdi. Nahotki bu, "allamo" dunyoning milliy-etnik, milliy demografik tarkibidan shunchalik bexabar bo'lsalar. Hozir Smolin tomonidan tilga olingan millatlarning barchasi MO ning barcha suveren respublikalarida bir qatorda, tinchlik totuvlikda. Nahotki, u Xitoy va Mo'g'ilistonda qozoqlar, Afg'onistonda esa millionlab o'zbeklar, tojiklar, qozoqlar yashashidan bexabar bo'lsa. Ularga yo'qsillar dohiysi Leninning nima aloqasi bor? Asli mazkur holatning o'ziyoq uning 1917-yil oktabr to'ntarishidan keyin millatlar paydo bo'lishi haqidagi soxta pozitsiyasini puchga chiqaradi. Bu oddiy piarning bir ko'rinishi va siyosiy populistik alahsirash edi. Dono xalqimizda "Oyni etak bilan yopib bo'lmaydi" deb, bekorga aytishmagan. Zotan, bugun suveren davlatlar g'oyasi asl siyosiy reallikka aylanib bo'lgan. Kostitusiyada suveren davlatchilik tamoyillari mustahkamlangan.

Bugungi davr siyosiy axborotlar bilan shiddat bilan o'zgarayotgan dunyo. Bu davr turli siyosiy piar ko'rinishlaridan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ehtimoliy xavf-hatarlarni oldindan ko'ra bilib, tegishli ehtiyot choralari ishlab chiqish va tahdidlarni bartaraf etishni taqozo etmoqda. Bularning barchasi mustaqil davlatlar suverenitetiga tahdid solayotgan bunday hodisalarning mafkuraviy poydevorini hosil qiluvchi vayronkor g'oyalarni bilish, anglash va ayniqsa siyosiy piar kompaniyalarini boshlashda munosabat bildiradi olishni muhim vazifaga aylantiradi.

Xulosa qilib aytganda, bunday shakldagi propaganda bilan bog'liq siyosiy texnologiyalar mamlakatda, jamiyat siyosiy madaniyatining yuqorida tilga olingan elementlari – ayni insonning fikrlashdagi mute'ligi, befarqligi, betarafligining oldini oladi, oxir-oqibat butun jamiyat hayotida salbiy hodisalarni keltirib chiqarishlarga to'sqinlik qilib boradi. Aslida har qanday siyosiy texnologiyalar siyosiy madaniyati birinchi navbatda hokimiyatni amalga oshirish usullariga ta'sir qilishga xizmat qiladi. Zotan, jamiyatni isloh qilish sharoitlarida siyosat madaniyat barcha sohalarining amal qilishi va mazmuniga jiddiy ta'sir o'tkaza olish imkoniyatiga ega. MO davlatlari siyosiy texnologiyalarni qo'llashdagi o'ziga xos madaniyat muhiti shakllanishi kerak hamda uning asosiy mohiyati odamlarni siyosiy faoliyat hamda siyosiy tizimga jalb qilish vazifalarida ko'rinishi joiz.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Sh.Mirziyoyev – Yangi O'zbekiston tarraqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. T.: O'zbekiston nashriyoti. 2022- yil 41 bet.
2. B.Alimov. Media muhitida O'zbekiston imiji. T: Ta'lim-media. 2020. 3-10 bet.
3. N.Jo'rayev, D.Muitov, G.Umarova. "Siyosatshunoslik" O'quv uslubiy qo'llanma. O'zDJTU nashriyoti. T: 2013 йил, 182 bet.
4. D.Muitov. Siyosiy madaniyat. O'quv qo'llanma. T: City of book. 2023 yil 74 bet.
5. Qarang. F.Muminov, N.Toshpulotova. Jurnalistik sotsiologiyasi va psixologiyasi. T.: O'zbekiston, 2019 yil, 191 bet.
6. Sh.Agabayev. Globallashuv va barqarror taraqqiyot. O'quv qo'llanma. T.: O'zDJTU nashriyoti. 2024 yil, 106 bet.
7. B.Alimov. Media muhitda O'zbekiston imiji. T.: Ta'lim media nashriyoti. 2021 йил, 87 bet.

8. N.Qalqonov. Siyosiy yetakshi imijini himoyalash texnologiyalari. Ma'naviy xavfsizlik – jadal taraqqiyot strategiyasining muhim omili. Respublika ilmiy anjuman materiallari to'plami. T.: 2019., O'zDJTU nashriyoti, 42 -bet.

9. С.Саидов. Феномен “мягкой силы” и некоторые аспекты во внешней политике. Журнал. Вестник высшей школы. Международные отношения. М.: 2022, №4, 194-108 стр.

10. D.Muitov. Axborot asri siyosiy texnologiyalari va propaganda. Jurnal. O'zbekiston sud ekstpertizasi. 2023 yil. 1-son. 52-57 betlar.